XX–XXI asr adabiyotshunosligida ona obrazini o‘rganish natijasida mazkur obraz an’anaviy “mehribon va fidokor ona” modeli doirasidan chiqib, murakkab, ko‘p qatlamli va dinamik badiiy hodisa sifatida namoyon bo‘layotgani aniqlandi. Zamonaviy adabiy jarayonda ona obrazi nafaqat oilaviy munosa-batlarni aks ettiruvchi vosita, balki shaxsiyat, madaniy xotira, ijtimoiy munosabatlar va gender muam-molarini ifodalovchi muhim estetik kategoriya vazifasini bajaradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ona obraziga oid zamonaviy tadqiqotlarda asosiy e’tibor onalikning ijtimoiy va psixologik mohiyati, ona-bola munosabatlarining shaxs shakllanishidagi o‘rni, patriarxal me’yorlar ta’siri va ayol identikligi masalalariga qaratilgan. Biroq ona obrazini faqat gender yoki ijtimoiy nuqtai nazardan o‘rganish uning badiiy imkoniyatlarini to‘liq ochib bera olmaydi. Shu bois mazkur tadqiqotda ona obrazi poetik kategoriya sifatida tahlil qilinib, uning sujet qurilishi, konflikt yaratish, ramziy ma’no yuklash va narativ tizimdagi funksiyalari ochib berildi.

Xulosa. Shunday qilib, ona obrazi zamonaviy adabiyotda oddiy personaj emas, balki inson, jamiyat va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalovchi ko‘p ma’noli badiiy fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Ona obrazining poetik xususiyatlarini o‘rganish adabiyotshunoslikda gender va ijtimoiy yondashuvlarni badiiy-estetik tahlil bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Bu esa zamonaviy adabiyotda onalik konsepsiyasining yangi ma’no qirralarini ochishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). (Yalda Yousefi. Demythologizing Motherhood: A Comparative Study of the Maternal and Mother-Daughter Relationships in the Works of Contemporary British, North American, and Iranian Women Writers University of Sheffield, 2015, p. 269.

(2). Hanan A. Alazaz. From the Feminine to the Maternal: Maternal Subjectivities in Contemporary American Fiction Lancaster University, 2019, p. 259

(3). Üstün Kaya, Senem (2020). Melekler veya Şeytanlar: Dünya Edebiyatında Annelik Olgusu Üzerine Karşılaştırmalı Bir Analiz. Akademik Dil ve Edebiyat Dergisi, 4 (4), s. 872–887.

(4). Shweta K.Kapoor. “Analysing the significance of the absent mother in the Victorian-era literature through select works of Dickens”. International Research Journal of Management and Commerce. Volume 5, Issue 3, March 2018, p. 875.

(5). Allison Dorothy. Bastard Out of Carolina. New York, Dutton, 1992.

(6). Morrison Toni. Beloved. New York, Knopf, 1987.

(7). Morrison Toni. Song of Solomon. New York, Signet, 1977.

(8). West Dorothy. The Wedding. New York, Doubleday, 1995.

(9). Gilman Charlotte Perkins. “The Giant Wisteria.” Crow, p. 387–392.

(10). Gilman Charlotte Perkins. “The Yellow Wall-Paper.” Crow, p. 392–402.

(11). Wharton Edith. The House of Mirth Second Norton Critical Edition. Edited by Elizabeth Ammons, 2nd ed., W.W.Norton & Company Inc., 2018.

Axunov Muqimjon (ADCHTI “Ingliz tili nazariy aspektlari’ kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); E-mail:muqumjon.axunov@bk.ru; UDK:811.111+811.512.133’373.7)

KRIMINAL FRAZEOLOGIYA INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA: SEMANTIK, LINGVOKULTUROLOGIK VA KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLAR

Annotatsiya. *Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi kriminal frazeologik birliklar qiyosiy-chog‘ishtirma aspektda tahlil qilinadi. Kriminal frazeologiya jinoyat, ayb, jazo, tergov, yashirish, fosh etish, qonunbuzarlik va javobgarlikdan qochish kabi ijtimoiy-huquqiy konseptlarni obrazli, ekspressiv va madaniy belgilangan shaklda ifodalovchi frazeologik birliklar tizimi sifatida ta’riflanadi. Tadqiqotda frazeologik identifikatsiya, semantik, komponent, struktur, kognitiv, lingvokulturologik, qiyosiy-chog‘ishtirma hamda diskursiv-pragmatik tahlil metodlari kompleks qo‘llanildi. Natijalar kriminal frazeologik birliklar beshta asosiy konseptual maydon atrofida tizimlashishini, ikki tilda obrazlar tizimining qisman mos kelishini va tarjimada to‘liq ekvivalent, qisman ekvivalent hamda analogik munosabatlar ustun ekanini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, kriminal frazeologiya, frazeologik birlik, idiomatiklik, semantik yaxlitlik, lingvokulturologiya, kommunikativ-pragmatik vazifa, qiyosiy tahlil, tarjima ekvivalentligi.*

КРИМИНАЛЬНАЯ ФРАЗЕОЛОГИЯ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ: СЕМАНТИЧЕСКИЕ, ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ И КОММУНИКАТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация. *В статье проводится сопоставительный анализ криминальных фразеологических единиц английского и узбекского языков. Криминальная фразеология определяется как система*

фразеологических единиц, выражающих в образной, экспрессивной и культурно обусловленной форме такие социально-правовые концепты, как преступление, вина, наказание, расследование, сокрытие, разоблачение, нарушение закона и уклонение от ответственности. В исследовании комплексно применены методы фразеологической идентификации, семантического, компонентного, структурного, когнитивного, лингвокультурологического, сопоставительного и дискурсивно-прагматического анализа. Результаты исследования показывают, что криминальные фразеологические единицы систематизируются вокруг пяти основных концептуальных полей, системы образов в двух языках частично совпадают, а в переводе преобладают отношения полной и частичной эквивалентности, а также аналогии.

Ключевые слова: *фразеология, криминальная фразеология, фразеологическое единство, идиоматичность, семантическое единство, лингвокультурология, коммуникативно-прагматические задачи, сравнительный анализ, соответствие перевода*

CRIMINAL PHRASEOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK: SEMANTIC, LINGUOCULTURAL, AND COMMUNICATIVE-PRAGMATIC CHARACTERISTICS

Annotation. *The article provides a comparative analysis of criminal phraseological units in English and Uzbek. Criminal phraseology is defined as a system of phraseological units that express socio-legal concepts – crime, guilt, punishment, investigation, concealment, exposure, law-breaking and evasion of responsibility – in a figurative, expressive and culturally marked form. The study applies a complex methodlogy combining phraseological identification, semantic, componential, structural, cognitive, linguacultural, comparative and discursive-pragmatic analysis. The results show that criminal phraseological units cluster around five core conceptual fields, that the imagery systems of the two languages partially coincide, and that full, partial and analogous equivalence prevail in translation.*

Keywords: *phraseology, criminal phraseology, phraseological unit, idiomaticity, semantic integrity, linguaculturology, communicative-pragmatic function, comparative analysis, translation equivalence.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda frazeologiya tilning tayyor, turg‘un, ko‘chma ma’noli va ekspressiv birliklarini o‘rganuvchi mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida e’tirof etiladi. Frazeologik birliklar nutqda tayyor holda qo‘llanadi, odatda, ikki yoki undan ortiq komponentdan tashkil topadi va ularning umumiy ma’nosi tarkibidagi so‘zlarning oddiy yig‘indi ma’nosiga teng bo‘lmaydi [1]. Shu sababli frazeologiya leksikologiya, semasiologiya, sintaksis, stilistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik hamda tarjimashunoslik bilan tutashgan fanlararo tadqiqot maydoni hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi kriminal frazeologik birliklarni qiyosiy-chog‘ishtirma aspektda o‘rganish, ularning semantik tuzilishi, konseptual asoslari, lingvomadaniy obrazlari va kommunikativ-pragmatik vazifalarini aniqlashdir. Kriminal frazeologiya deganda jinoyat, ayb, jazo, tergov, aldov, yashirish, fosh etish, qonunni buzish va javobgarlikdan bo‘yin tovlash kabi ijtimoiy-huquqiy tushunchalarni obrazli va baholovchi shaklda ifodalovchi frazeologik birliklar tizimi tushuniladi.

Muammoning dolzarbligi shundan iboratki, kriminal sohaga oid til birliklari ko‘pincha termin, erkin birikma va frazeologizm chegarasida turadi; ularning obrazli-baholovchi tabiati esa terminologik birliklardan farqli o‘laroq, yetarlicha o‘rganilmagan. Qiyosiy yondashuv ikki genealogik jihatdan uzoq til – ingliz va o‘zbek tillari materialida frazeologik universaliyalar bilan milliy-madaniy o‘ziga xosliklarni ajratish imkonini beradi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot materialini ingliz va o‘zbek tillaridagi kriminal-huquqiy va ijtimoiy-axloqiy mazmunni ifodalovchi frazeologik birliklar tashkil etadi. Ingliz tilidan *to be caught red-handed*, *to cover one’s tracks*, *to be behind bars*, *to get away with murder*, *to break the law*, *to get off scot-free* kabi, o‘zbek tilidan esa *qo‘lga tushmoq*, *qilmishi fosh bo‘lmoq*, *izini yopmoq*, *aybini bo‘yniga olmoq*, *qonunni chetlab o‘tmoq*, *suvdan quruq chiqmoq* kabi birliklar tahlilga jalb etildi.

Frazeologik birlik ko‘p qavatli til hodisasi bo‘lgani uchun tadqiqotda kompleks metodologiya qo‘llanildi. **Frazeologik identifikatsiya metodi** erkin so‘z birikmasi bilan frazeologik birlikni farqlashga, kriminal birliklarni termin, kollokatsiya va frazeologizm sifatida ajratishga xizmat qildi; bunda erkin va turg‘un birikmalar o‘rtasida turli darajadagi turg‘unlik (setness) mavjudligi hisobga olindi [6]. **Semantik tahlil** birlikning umumiy ma’nosi, idiomatiklik va motivatsiya darajasini aniqladi. **Komponent tahlil** tarkibiy so‘zlarning frazeologik ma’no hosil qilishdagi rolini ochib beradi; Zerkina va Kostina komponentlarni real words, potential words, former words va ghost-words turlariga ajratadi [6].

Struktur tahlil birliklarning grammatik qurilishini (fe’lli, otli, predikativ yoki gapga teng shakllar) belgiladi. **Kognitiv tahlil** frazeologizm ortidagi konseptual metaforalarni aniqladi. **Lingvokulturologik tahlil** milliy-madaniy ma’no qatlamini, **qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil** esa ikki tildagi moslik va tafovutlarni

yoritdi [5]. Nihoyat, **diskursiv-pragmatik tahlil** birlikning real nutqdagi baholovchi va kommunikativ vazifasini belgiladi. Ushbu metodlar bir-birini inkor etmaydi, balki o‘zaro to‘ldiradi [1].

Natijalar. Kriminal frazeologik birliklarning konseptual maydonlari. Tahlil natijalari kriminal frazeologik birliklar beshta asosiy konseptual maydon atrofida tizimlashishini ko‘rsatdi. Birinchi maydon – **jinoyat sodir etish va qonunni buzish** (*to break the law*, *to cross the line*; *qonunni buzmoq*, *qonunni chetlab o‘tmoq*). Ikkinchi maydon – **aybni yashirish va dalillarni yo‘qotish** (*to cover one’s tracks*, *to hide the evidence*; *izini yopmoq*, *qilmishini yashirmoq*). Uchinchi maydon – **fosh bo‘lish va qo‘lga tushish** (*to be caught red-handed*, *to be exposed*; *qo‘lga tushmoq*, *qilmishi fosh bo‘lmoq*).

To‘rtinchi maydon – **jazo va qamoq** (*to be behind bars*, *to do time*; *panjara ortida bo‘lmoq*, *jazo o‘tamoq*). Beshinchi maydon–**jazodan qutulish va javobgarlikdan bo‘yin tovlash** (*to get away with murder*, *to get off scot-free*; *jazosiz qutulib ketmoq*, *suvdan quruq chiqmoq*). Bunday tizimlash kriminal frazeologik fondning ichki semantik strukturasini aks ettiradi.

Semantik tasnif va idiomatiklik darajasi. V.V.Vinogradov tasnifiga ko‘ra, kriminal frazeologik birliklar idiomatiklik darajasiga qarab uch turga ajratiladi [4]. Frazeologik chatishmalarda umumiy ma’no komponentlardan kelib chiqmaydi (*to kick the bucket*), ammo kriminal sohada bunday birliklar nisbatan kam uchraydi. Frazeologik butunliklarda ma’no obrazli asos orqali qisman anglashiladi va aynan shu qatlam kriminal frazeologiyada eng faoldir (*to be caught red-handed*, *to cover one’s tracks*; *izini yopmoq*). Frazeologik birikmalarda esa komponentlardan biri bog‘langan ma’noda keladi va bu tur terminologik kollokatsiyalar bilan tutashadi (*to press charges*, *to serve a sentence*; *jazo o‘tamoq*, *sudga bermoq*).

Ekvivalentlik darajalari. Qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil ingliz va o‘zbek kriminal frazeologik birliklari o‘rtasidagi ekvivalentlik darajalarini aniqlash imkonini berdi. Quyidagi jadval asosiy munosabatlarni umumlashtiradi.

1-jadval

Ingliz va o‘zbek kriminal frazeologik birliklarining ekvivalentlik darajalari

Ingliz tili	O‘zbek tili	Ekvivalentlik turi	Tarjima usuli
to cover one’s tracks	*izini yopmoq*	To‘liq / yaqin ekvivalent	Obrazni saqlash
to be caught red-handed	*jinoyat ustida qo‘lga tushmoq*	Qisman ekvivalent	Obrazni almashtirish
to be behind bars	*panjara ortida / qamoqda bo‘lmoq*	To‘liq/qisman ekvivalent	Obrazni saqlash
to get away with murder	*jazosiz qutulib ketmoq; suvdan quruq chiqmoq*	Analogik moslik	Analog
plea bargain	*aybga iqrorlik evaziga kelishuv*	Ekvivalentsiz birlik	Izohli tarjima

Jadvaldan ko‘rinadiki, eng yuqori moslik *iz* obraziga asoslangan birliklarda kuzatiladi: har ikki tilda ham ushbu obraz qilmish yoki jinoyat dalili bilan bog‘lanadi. Huquqiy tizimga bog‘liq birliklar (*plea bargain*) esa ekvivalentsiz bo‘lib, izohli yoki kontekstual tarjima talab qiladi [10].

Muhokama. Olingan natijalar kriminal frazeologiyaning umumiy frazeologiya nazariyasining maxsus semantik-diskursiv yo‘nalishi ekanini tasdiqlaydi. Kriminal frazeologik birliklar frazeologizmning barcha asosiy belgilarini – turg‘unlik, reproduktivlik, semantik yaxlitlik, idiomatiklik, obrazlilik, ekspressivlik va milliy-madaniy belgililikni saqlaydi, biroq ularni jinoyat-huquqiy konseptlar doirasida namoyon qiladi.

Kognitiv jihatdan kriminal frazeologik birliklar bir qator barqaror konseptual metaforalarga asoslanadi: JINOYAT – IZ, AYB – DOG‘, QAMOQ – PANJARA, JAVOBGARLIK – YUK, FOSH BO‘LISH – OCHILISH. Masalan, *to cover one’s tracks* va *izini yopmoq* birliklari «qilmish iz qoldiradi» degan konseptual modelga tayanadi; *aybini bo‘yniga olmoq* esa javobgarlikni tananing muayyan qismi orqali konseptuallashtiradi. Bu modellar ikki tilda qisman umumiy bo‘lib, frazeologik universaliyalar mavjudligini ko‘rsatadi.

Lingvokulturologik nuqtayi nazardan, frazeologik birliklarning milliy o‘ziga xosligi umumiy ma’noda emas, balki shu ma’noni ifodalash uchun tanlangan obrazda namoyon bo‘ladi. Ingliz tilidagi *red-handed* obrazi tarixan qon va jinoyat izi bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘zbek tilidagi *qo‘lga tushmoq* nazorat, ushlanish va fosh bo‘lish semalariga tayanadi. Demak, qiyosiy-frazeologik tahlilda faqat lug‘aviy ekvivalentlik emas, balki obrazlar tizimi, madaniy assotsiatsiya va baholovchi sema ham hisobga olinishi zarur.

Diskursiv-pragmatik jihatdan bir frazeologizm turli nutqiy muhitda har xil vazifa bajaradi. *Qo'lga tushmoq* rasmiy xabarda neytralroq «ushlandi» ma'nosida, jurnalistik matnda fosh etish va huquqiy nazorat semalari bilan, badiiy kriminal diskursda esa sujetdagi keskin burilish vositasi sifatida qo'llanadi. Bu kriminal frazeologik birliklarni faqat lingvistik birlik emas, balki jamiyatning huquqiy ongi va axloqiy munosabatini ifodalovchi diskursiv vosita sifatida ko'rishga asos beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga olib keldi. Birinchidan, kriminal frazeologiya jinoyat-huquqiy va ijtimoiy-axloqiy konseptlarni obrazli, ekspressiv va madaniy belgilangan shaklda ifodalovchi alohida frazeologik tizim sifatida ajraladi hamda kriminal terminologiyadan baholovchi va pragmatik tabiati bilan farqlanadi. Ikkinchidan, kriminal frazeologik birliklar beshta asosiy konseptual maydon atrofida tizimlashadi va idiomatiklik darajasiga ko'ra asosan frazeologik butunliklar qatlamiga mansubdir.

Uchinchidan, ingliz va o'zbek tillarida obrazlar tizimi qisman mos keladi. Bir qator birliklar to'liq yoki yaqin ekvivalent, ko'pchiligi qisman ekvivalent yoki analogik munosabatda bo'ladi, huquqiy tizimga bog'liq birliklar esa izohli tarjimani talab qiladi. To'rtinchidan, kriminal frazeologik birliklarni adekvat tahlil qilish frazeologik identifikatsiya, semantik, komponent, struktur, kognitiv, lingvokulturologik, qiyosiy va diskursiv-pragmatik metodlarni uyg'unlashtiruvchi kompleks yondashuvni taqozo etadi. Mazkur natijalar ikki tilli kriminal frazeologik lug'at tuzish va badiiy hamda huquqiy matnlar tarjimasi amaliyoti uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Qarshiyeva Sh.T. Frazeologik terminlarning leksikografik tahlili. CARJIS. 2022, 163–169-betlar.

(2). Zokirova S. Phraseology as a Science. The Subject and Tasks of Phraseology. International Journal of Artificial Intelligence. 2024, p. 389–390.

(3). Adaxamjonova M.B., Abduvaliyev M.A. Birth and Development of Phraseology as a Linguistic Discipline in World Linguistics. GIIRJ. 2022, p. 746–747.

(4). Hojiyeva G.S., Olimova M. Types of Phraseologisms According to Semantic Classification. Western European Journal of Linguistics and Education. 2025, p. 33–34.

(5). Norov I., Matmuratova M. O'zbek frazeologiyasining o'rganilish tarixi. 11–13-betlar.

(6). Zerkina N., Kostina N. English Phraseology in Teaching: Interrelation of Theory and Practice, p. 143–144.

(7). Sotvaldieva H.M., Masharipova A.T. "Phraseology as an Independent Branch of Linguistics" – International Journal of Science and Research (IJSR), Vol. 9, Issue 12, December 2020.

(8). Xudoyqulov B. Frazeologizmlarning asosiy xususiyatlari (italyan tilidagi iboralar misolida). Uchinchi renessans: ilm-fan va ta'lim taraqqiyoti istiqbollari. 2021.

(9). Amirkulova N.A. (2020). The Some Problems of Phraseology. Вестник науки и образования, 10(88), Part 2.

(10). Saidova Z.X. Modern Methods of Translating Phraseological Units // Eurasian Research Bulletin. 2022, p. 153–154.

Ergasheva Sadoqat Muratovna (Toshkent davlar Sharqshunoslik universiteti doktoranti; sadafff1989@gmail.com)

NOVERBAL KOMMUNIKATSIYADA ERKAK VA AYOL SOTSIAL ROLLARINING PRAGMATIK INTERPRETATSIYASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada noverbal muloqot tizimida erkak va ayol sotsial rollarining pragmatik tabiati tadqiq etiladi. Maqolada genderga xos sotsial rollarning kognitiv freym va ssenariy andozalari asosida qanday shakllanishi, noverbal signallar (kinesik, paralingvistik, proksemik markerlar) orqali yashirin pragmatik ma'no (implikatura va illokutiv maqsad) aks etishi aniqlangan. Noverbal muloqot tizimidagi gender xususiyatlari aniq badiiy parchalar kognitiv-pragmatik interpretatsiyasi misolida ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *noverbal kommunikatsiya, gender diskurs, sotsial rollar, pragmatik interpretatsiya, kognitiv freym, implikatura, kinesika, paralingvistika.*

ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ МУЖСКИХ И ЖЕНСКИХ СОЦИАЛЬНЫХ РОЛЕЙ В НЕВЕРБАЛЬНОЙ КОММУНИКАЦИИ

Аннотация. *В данной статье исследуется прагматическая природа мужских и женских социальных ролей в системе невербального общения. В статье определено, как формируются гендерно обусловленные социальные роли на основе когнитивных фреймов и сценарных моделей, а также каким образом скрытое прагматическое значение (импликатура и иллокутивная цель) отражается посредством невербальных сигналов (кинесических, паралингвистических, проксемических мар-*